



PEDAGOGNING MAHORATI VA UNING TA'LIM TARBIYADAGI AHAMIYATI

S.Sh.Ziyodullayeva

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchi

Aminova Saodat Saitovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchi

347-23-talabasi

Annotatsiya

Ushbu magolada pedagogning mahorati qanday bo'lishi kerak ekanligi, o'qituvchining qanday shaxs sifatida shakllanishi, ularni ta'lism-tarbiya berish talablari dars davomida o'zini qanday tutishi lozimligi, o'quvchilar bilan olib borayotgan ish jarayonlari. Shu bilan birga o'quvchi va o'qituvchi munosabati pedagogik mahoratning ahamiyati. Adiblarimizning pedagoglar haqida fikrlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Pedagogik mahorat, tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lism kreativ, shaxs, vazifa, fikr,adolat, munozara, jumla.

Kirish

Maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini nafaqat yoshlarimiz balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. (1-prezidentimiz I.A.Karimov)

Asosiy

Biz bilamizki ta'lism-tarbiya deb atalgan murakkab jarayon subektlaridan biri bu -pedagog hisoblanadi. Birinchi bo'lib pedagog shuni anglashi kerak, u davlat



va jamiyatning ishonchli hamda kerakli bo'lgan vakili. Shu sababli davlat pedagoglarga o'zining katta boyligi, ishonchi, umidi va eng muhimi kelajagi bo'lgan bolalarni ishonib qo'ygan. Bunday ulkan mas'uliyatli ishni har kim ham bajara olmaydi.

Bu kasbga umrini, mehnatini, hayotini bag'ishlagan har bir insondan doimiy izlanish, ijod qilish, ulkan qalb kelajak avlod ya'ni bolalarga muhabbat va cheksiz sadoqatni talab qiladi.

Pedagogik mahorat- pedagogning faoliyati davomida yuzaga chiqadi. Mahorat bu - belgilangan vaqt ichida erishish mumkin bo'lgan hamda natija olib keladigan pedagogik faoliyatning oliy darajasi hisoblanadi. Pedagogik mahorat turli pedagogik topshiriqlarni samarali hal qilishda o'quv tarbiya jarayonlarini yuqori saviyada kreativ yondashib qiziqarli tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Pedagog tarbiya jarayoni qonun-qoidalari tarkibi, tartibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tashkil qiladi. Bolalarni tarbiyalash, o'qitish, bilim berish va shakillantirish pedagogning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha hisoblanadi. Oila va jamiyatning barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini rivojlanitirish ko'zda tutiladi. E'tiqod, ezgulik, dunyoqarash yaxshilik, go'zallik ko'nikmalarining shaxsda namoyon bo'lishida tarbiyaning o'rni katta. Pedagogning qo'liga kelgan o'quvchi bamisolli oppoq qog'ozga o'xshaydi. Uni nima bilan to'ldirish pedagogning o'ziga bog'liq. Biz bilamizki, mакtabга endi qadam qo'ygan bola hali bu muhitga moslashmagan bo'ladi va darslardan tez zerikadi. O'qituvchi mana shunday vaqtda bolalarga qiziqarli dars o'tishi va dars mobaynida turli metodlardan foydalanish kerak.



Tadqiqotchilarning fikricha 4 ta komponent pedagogik mahorat asosini tashkil etadi:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi;
2. O'qituvchilik kasbiga sadoqat;
3. O'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilish;
4. Pedagogik qobiliyatini namoyish eta olishi.

Shunday qilib o'qituvchlik kasbi murakkab va ma'sulyatli kasb.

Pedagoglik kasbi hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelinayotgan kasbdir. Al-Farobiy o'z asarida pedagog haqida shunday deydi: "O'qituvchi aql -farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lган fikrini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U yana pedagog haqida o'z fikirlarini davom ettirib "Pedagog vazifasi dono rahbar vazifasiga o'xshaydi. Shuning uchun u har bir ishni o'ylab qilishi kerak. Shu bilan birga pedagog adolatli o'z nomusini, sha'nini qadrlashi lozim. Ana shunda u insoniylikni yuksak darajasini egallaydi va bilish cho'qqisiga erishadi".

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha: "Pedagog sof, matonatli, bilimli, vijdonli, rostgo'y, bolalarni tarbiyalash metodlarini biladigan axloqli odam bo'lmosg'i joiz" - deb ta'kidlaydi.

Nasriddin Tusiy "O'qituvchilarning tarbiyalash to'g'risida" asarida shunday deydi: o'qituvchi munozaralarini olib borishi rad etib bo'lmas darajadagi isbot qilishi bilishi, o'z fikrlarini to'g'rilingiga ishonishi, nutqi mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi, o'qituvchi nutq hech qachon, hech qayerda zaharxandali qo'pol bo'lmasligi, arz paytida o'qituvchi ozini tutib turolmasligi ishini buzishi mumkin.



Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan chiqib shuni aytish mumkinki, har bir inson ilm fan bilim bilan hamnafas bo'lishi, ilim olib aqliy kamol topishi kerak, bu vazifani esa tabiiyki o'qituvchi bajaradi.

Pedagoglar qanchalik mahoratlari bo'lsa, talim, bilim va tarbiya olayotgan yosh avlod shunchalik yuksak marralarga erishadi. Mahoratli, bilimli pedagogdan ta'lif olgan bola hech qachon kam bo'lmaydi. Shunday ekan, dunyodagi har bir inson pedagogik ta'lif va tarbiyasini olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamidova Nilufar, Oksana Aleksandrovna "Pedagogik mahorat va uning komponentlari";
- 2."Zamonaviy o'qituvchi". B.A.Ergashev;
- 3.P. Yusupova "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi",
- 4.T. Nedopekina "Maktab bo'sag'asida";
- 5.I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch";
- 6.O'zbekiston Respublikasi "Kadrlarni qayta tayyorlash" milliy dasturi.